

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

- hududiy brend kuchayishi.

Tavsiyalar:

1. Zomin turizmi uchun **strategik rivojlanish dasturini ishlab chiqish**;
2. Ekoturizm obyektlari uchun **raqamlashtirish tizimini** joriy etish;
3. Mahalliy tadbirkorlar uchun **grant va imtiyozli kreditlar** ajratish;
4. Ekologik barqarorlikni ta'minlash;
5. Zomin brendi ostida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hisobotlari (2022–2024).
2. Jizzax viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
3. UNWTO Tourism Economic Impact Report, 2023.
4. Sharpley R. Sustainable Tourism Development. London, 2020.
5. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. T., 2022.
6. Keynes J. General Theory of Employment, Interest and Money.
7. Цой М. Развития сферы услуг в Узбекистане: тенденции и перспективы //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 73-86.
8. Салохитдинов Ш. Мамлакатимизда хизматлар соҳасининг ривожланиши ва таркибий ўзгаришлари таҳлили //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 93-97.
9. Saloxitdinov S., Xayitboyeva M. " EKOTURIZM VA YASHIL IQTISODIYOT: ATROF-MUHITNI ASRASHDA SAYYOHLIKNING ROLI": <https://doi.org/10.5281/zenodo.14597933> //International scientific and practical conference. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 194-196.
10. Saloxitdinov S., Qurbanova M. BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA" YASHIL TURIZM" NING O'RNI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14554666> //International scientific and practical conference. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 28-30.

XORIJDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Fayzullayeva Sojida Farxodovna

O'zMU Jizzax filiali assistenti

ORCID: 0009-0008-4903-6190

[*sojidafayzullayeva44@gmail.com*](mailto:sojidafayzullayeva44@gmail.com)

Hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida jahonda turistik xizmatlarining turlari va jozibadorligi oshib bormoqda: shu jumladan mazkur sohaga taaluqli bo'lgan kasb-kor bilan shug'ullanuvchilar soni ham ortib bormoqda, shunindek, sayyohlik bilan shug'ullanadigan kasb vakillari ham ortib bormoqda. Turizm xalqaro

munosabatlarda muhim o‘rinni egallaydi: sayyaramizdagi 8 milliardga yaqin kishidan har yili 1 milliardga yaqin sayyohlik maqsadida chet davlatlarga tashrif buyuradi. So‘ngi uch o‘n yillikda dunyo bo‘ylab sayyohlar soni qariyb 4 baravar, turizmdan tushgan daromat esa 25 barobardab ko‘proq oshdi⁵².

Respublikamiz xalqaro turizm xizmatlari sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo‘shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O‘zbekistonning geografik o‘rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy-iqlim sharoitiga egaligi insoniyatmadaniy taraqqiyotida ham katta o‘rin tutadi. O‘zbekiston iqtisodiy barqaror davlatlar qatoriga kirib, nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin – shakar mevalari, xilma-xil taomlar, ajoyib milli an‘ana, urf-odatga ega, xalqi esa mehmondo‘sligi bilan ajralib turadi. Bunday munosabat esa albatta xorijiy sayyohlarning juda qiziqtiradi va ularning bevosita turli turistik sayru- sayohatlarga chiqishlariga sabab bo‘ladi.

Xorijiy mualliflarning fikricha turli mamlakatlar taraqqiyoti “...rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmning rivojlanish va o‘rish ko‘rsatkichlari ularning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasiga bog‘liq”. Boshqa mutaxassislar esa mamlakatda turistik siyosat geosiyosiy jarayonlarga ham ta‘sir ko‘rsatadi deb hisoblashadi “...turizm geosiyosiy jarayonlarga ta‘sirchan soha bo‘lib, mamlakatlarning rivojlanish darajasidan qat‘iy nazar geosiyosiy hodisalar natijasida o‘zgarib boradi”⁵³. Bunga misol sifatida Misrda turistik oqimning o‘zgarish dinamikasi keltirilgan.

M.A.Saakyanning fikricha⁵⁴, esa “turizm sohasi qisqa vaqt ichida bandlik hajmini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiluvchi, qashshoqlikni sezilarli darajada kamaytiruvchi va hatto, sezilarli iqtisodiy o‘rishni ta‘minlovchi soha hisoblanadi. Turizmning iqtisodiyotga yuqoridagi ijobiy ta‘siriga esa turizm va uning infratuzilmasiga investisiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan muvozanatli va keng qamrovli davlat siyosati orqali erishish mumkin”.

Jahon turizm sanoatining tarkibidagi quyi segmentdan⁵⁵, ommaviy yo‘nalishga aylanib borayotgan ekologik turizm endilikda turizm sanoatining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Ekoturizm rivojlanishining istiqbollari Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) tomonidan belgilab berilgan: Ekoturizm 2020 yilgacha bo‘lgan davrda turizm sohasini rivojlantirishning beshta asosiy strategik yo‘nalishlari jumlasiga kiradi, shu davrda ekologik turistlarning soni yiliga 30 % ko‘payib borishi kutilmoqda. Turizm industriyasidan samarali foydalanish, turizm salohiyatini maqsadga muvofiq yo‘naltirish, xorijiy mamlakatlarning erishgan yutuqlarni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish maqsadga muvofiq. Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) ma‘lum qilishicha, 1950-

⁵² Tourism Statistics.—<http://www.focus-asia.com/stpb/pages/tourinfo.html>

⁵³ Кузнецова Ольга Космин, Анатолий, Кузьменко, Арина Кузнецов, Владимир Кузнецова, Светлана Самохвалова, Ольга. (2019). Туризм как драйвер социальноэкономического и социокультурного развития страны. Journal of International Economic Affairs. 9. 2165. 10.18334/eo.9.3.40705

⁵⁴ Саакян М.А. Тенденции развития и проблемы занятости в сфере туризма РА. Девятая Годичная научная конференция (3-8 декабря 2014 г.). Сборник научных статей. Социально-гуманитарные науки. Часть II. – Ер.: Изд-во РАУ, 2015. – 390 с.

⁵⁵ Xamidov O. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. Diss– T.: 2018. – 67 b.

yilda turistik 25 million nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilga kelib esa 1035 million nafarga yetdi. Keyingi paytlarda doimiy usish sur‘ati 10 foizni tashkil etadi. Bashoratlarga ko‘ra 2030-yilga borib 1,8 milliard nafarga turistlar soni oshishi kutilmoqda. Turizm bozorining qariyb yarmini Osiyo – Tinch okyani, Yaqin va O‘rta sharq hamda G‘arbiy Afrika mintaqalaridagi mamlakatlar qamrab olgan⁵⁶.

Jahonda Turkiya sayyohlarni jalb etish bo‘yicha Fransiya, AQSH, Ispaniya, Xitoy va Italiyadan keyingi oltinchi o‘rinda bormoqda. Aholining salkam 2 mln. kishisi turizm tufayli bilan band. AQSH, Shveysariya, Kanada, Fransiya, BAA singari bir nechta davlatlarda sayyohlarning katta oqimini jalb qilish, o‘zaro hamkorlik aloqalarini boshqarishga alohida qaratilgan. Agarda mazkur oqimlar boshqa mamlakatlar xududlarini egallasa, ular yuqorida keltirilgan mamlakatlar turizm biznesi tomonidan maksimal darajada nazorat qilinadigan kanallar orqali o‘tishi uchun barcha choralar ko‘riladi (1-rasm).

Rivojlangan mamlakatlar	Turizm xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan ustuvor yo‘nalishlar
AQSH, Angliya va Olmoniya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlar	Turizm xizmatlari orqali keladigan daromadlarni ko‘paytirishga intilish va bu borada mamlakatga xorijiy sayohatchilarni jalb qilish maqsadida jiddiy chora-tadbirlar belgilanadi.
Ispaniya va Shveysariya	Mazkur davlatlarda ayniqsa xalqaro turistlarning oqimini ko‘paytirish uchun turistik xizmatlar raqobatbardoshligiga va ochiqlik, ixtiyoriylik, erkinlik va tadbirkorlar uchun turli preferensiyalar yaratilishi borasida tizimli ishlar olib boriladi.
Janubiy-Sharqiy Osiy mamlakatlaridan – Koreya, Malayziya, Isroil, Singapur	Turistik xizmat ko‘rsatishning innovasion strategiyasiga alohida e‘tibor qaratiladi, jumladan raqamlashtirilgan xizmatlar turlari, institusional o‘zgarishlar va turistlarni o‘z mamlakatlariga yo‘naltirishning har qanday qonuniy yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash.
Norvegiya, Italiya, Ispaniya	Yuqori samaradorlikka erishishga asos bo‘luvchi turistik klasterlarni tashkil etish, unga turdosh bo‘lgan sohalarning rivojlanishi bo‘yicha turistik industriya taraqqiyotiga tashkiliy asos bo‘ladigan chora-tadbirlar qo‘llaniladi

1-rasm. Xorijiy davlatlarda turistik xizmatlarni rivojlantirish tajribalari⁵⁷

Ilg‘or jahon mamlakatlarida turizm samaradorligini oshirish rivojlanish darajasi nisbatan orqada qolgan hududlarda iqtisodiy o‘rnatilishni rag‘batlantirishiga yo‘naltirilgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad davlat korxonalarini joylashtirishni rag‘batlantirish, maxsus iqtisodiy zonalar va klasterlarni tashkil etish mexanizmlaridan keng foydalaniladi.

Xorijiy davlatlarda turistik xizmatlar raqobatbardoshligini ta‘minlash mexanizmi sifatida uzoq muddatli davrga mo‘ljallangan strategiya va maqsadli dasturlar qabul qilinadi va uni amalga oshirish juda keng qo‘llaniladi. Bundan

⁵⁶ www.unwto.org. Birlashgan Millatlar Butunjahon Turizm Tashkiloti sayti

⁵⁷ Ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

tashqari xorijiy mamlakatlarda turizmni rivojlanishini tartibga solish va boshqarish bo‘yicha ham ham boy tajriba to‘plangan. Shu o‘rinda turizm industriyasini boshqarishning quyidagi modellarini farqlash mumkin:

1) Turizm sanoatini rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv organlari orasida mahalliy tuzilmalarga beriladigan imkoniyatlarni oshirish. Turizm xizmatlari va uning infratuzilmasi alohida tarmoq vazirligi tomonidan boshqariladi, nazorat qilinadi. Bundan tashqari jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, turizm infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

2) Turizm xizmatlari va uning infratuzilmasi alohida tarmoq vazirligi tomonidan boshqariladi, nazorat qilinadi. Bunda turistlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, turizm infratuzilmasi ob‘yektlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli ishlar olib boriladi.

3) Turizm xizmatlari bozorini boshqaruvchi tegishli vazirliklar, idoralar va korxonalarni koordinatsiya qilish, me‘yoriy-huquqiy xujjatlarni tayyorlash va turizm bo‘yicha dasturlarning bajarilishi bilan bevosita shug‘ullanadi. Mazkur boshqarish tizimining maqsadi markaziy hukumat, tarmoq vazirliklari va korxonalari, hududiy, mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashdan iborat.

Jahon turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishga asosiy to‘siq bo‘lib kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni samarali yechimlarini izlashga qaratilgan tadqiqotlarni o‘tkazish hozirgi davrda ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonda hududiy turizmga mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muhim omili sifatida qaralmoqda va milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirishning samarali modelini ishlab chiqishga alohida etibor berilmoqda. Bunda hududiy turizm to‘g‘ridan -to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish va turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tourism Statistics. — <http://www.focus-asia.com/stpb/pages/tourinfo.html>
2. Кузнецова Ольга Косьмин, Анатолий, Кузьменко, Арина Кузнецов, Владимир Кузнецова, Светлана Самохвалова, Ольга. (2019). Туризм как драйвер социальноэкономического и социокультурного развития страны. Journal of International Economic Affairs. 9. 2165. 10.18334/eo.9.3.40705
3. Саакян М.А. Тенденции развития и проблемы занятости в сфере туризма РА. Девятая Годичная научная конференция (3-8 декабря 2014 г.). Сборник научных статей. Социально-гуманитарные науки. Часть II. – Ер.: Изд-во РАУ, 2015. – 390 с.
4. Xamidov O. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. Diss– T.: 2018. – 67 b.
5. www.unwto.org. Birlashgan Millatlar Butunjahon Turizm Tashkiloti sayti
6. Saloxitdinov S., Xayitboyeva M. " EKOTURIZM VA YASHIL IQTISODIYOT: ATROF-MUHITNI ASRASHDA SAYYOHLIKNING ROLI": <https://doi.org/10.5281/zenodo.14597933> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 194-196.

7. Saloxitdinov S., Qurbanova M. BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL TURIZM" NING O'RNI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14554666> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 28-30.

8. Saloxitdinov S., Homidov Q. TARIXIY ME'MORCHILIK VA MADANIY MEROS TURIZMI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14620720> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 17-18.

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI

G'aybullayev Sarvar

O'zMU Jizzax filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning iqtisodiy jihatlari, qo'shimcha qiymat yaratishdagi roli, resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari, bandlikni oshirishdagi o'rni, eksport salohiyatini kuchaytirishdagi ahamiyati hamda oziq-ovqat xavfsizligiga qo'shayotgan hissasi keng yoritilgan. Tezisdagi qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi agrar sektor barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirishdagi omillar, zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi va klaster tizimining samaradorligi ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, qayta ishlash jarayonining O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ustuvor yo'nalish sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar.: Qayta ishlash, qishloq xo'jaligi, agroklaster, qiymat zanjiri, eksport salohiyati, qo'shimcha qiymat, resurs tejamkorlik, agrotehnologiya, oziq-ovqat xavfsizligi.

Abstract: This thesis broadly covers the economic aspects of agricultural processing, its role in creating added value, the possibilities of efficient use of resources, its role in increasing employment, its importance in strengthening export potential, and its contribution to food security. The thesis scientifically analyzes how the development of processing industries affects the stability of the agricultural sector, factors that increase producers' incomes, the introduction of modern technologies, and the effectiveness of the cluster system. It also substantiates the importance of the processing process as a priority for the economy of Uzbekistan.

Keywords: Processing, agriculture, agrocluster, value chain, export potential, added value, resource efficiency, agrotechnology, food security.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash zamonaviy agrar iqtisodiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashda hamda eksport hajmini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashtirish va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda qishloq xo'jaligi xomashyosini faqat birlamchi holatda realizatsiya qilish iqtisodiy jihatdan yetarli